

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Saipova Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	5
A.T.Nazarov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar	9
E.T.Umarov Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari	12
M.A.G'ofurova Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari	21
L.S.Isroilova Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limni tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi	27
G.T.Hojikarimova Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	31
A.A.Abdumanofov Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений	36
H.H.Бобожонов, П.Д.Мамутов Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов	40
M.A.Esonmirzayeva Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	43
M.A.Esonmirzayeva Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar	47
E.E.Tadjibayev Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati	51
S.A.Maxmudova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	55
M.E.Madaminova Talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish mazmuni va metodik asoslari	59
M.B.Kamoldinov Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi	63
Z.A.Davlataliyeva Talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari	67
F.A.Hamdamiyeva Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli	71
B.A.G'ofurova Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish	75
N.O.Xaydarova Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari	78
U.I.Obidjanov Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va	



UO'K: 37.091.3:37.041

**TALABALARNING O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH USULLARI****МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО РАЗВИТИЮ УЧЕБНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ****METHODS OF ORGANIZING ACTIVITIES FOR DEVELOPING STUDENTS' LEARNING
COMPETENCE**

Davlataliyeva Zarina Asqarali qizi 
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Kommunikativ kompetensiya ko'pincha tushunishni yaxshilash uchun o'qish ko'nikmasini rivojlantiradigan lingvodidaktik usullar qo'llash orqali rivojlanadi. Aynan kasbga yo'naltirilgan maqsadda chet tilini o'rganish esa shu sohaga oid terminlarni ham o'rganish zaruriyatini qo'yadi.

Аннотация

Коммуникативная компетентность часто развивается посредством использования лингводидактических методов, развивающих навыки чтения для улучшения понимания. Изучение иностранного языка в профессиональных целях также требует изучения терминов, связанных с этой областью.

Abstract

Communicative competence is often developed through the use of linguo-didactic methods that develop reading skills to improve comprehension. Learning a foreign language for professional purposes makes it necessary to learn terms related to this field.

Kalit so'zlar: semantik tahlil, sintaktik tahlil, texnik leksika, kommunikativ kompetensiya.

Ключевые слова: семантический анализ, синтаксический анализ, техническая лексика, коммуникативная компетентность.

Key words: semantic analysis, syntactic analysis, technical vocabulary, communicative competence.

KIRISH

O'qish nafaqat hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan faoliyat turi, balki u insonlarni tasavvur qilishga, o'rganishga, tafakkur qilishga, yangi narsalarni yaratishga undaydigan sehrli jarayondir. Talabalarga matnlarni kommunikativ o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning biz inkor eta olmaydigan va ularsiz natijaga erisha olmaydigan ikki xil ajralmas usuli mavjud. Bular so'z boyligi(vocabulary) hamda tushunish (comprehension) hisoblanadi. Biz har qanday zamonaviy metodlardan yoki samarali strategiyalardan foydalanishimizga qaramay agar bizda yetarlicha so'z boyligi(vocabulary) bo'lmasa hech qanday ijobiy natijaga erisha olmaymiz. So'zlarni o'zini yodlash ham bunda foyda bermaydi chunki biz ularni matnda qanday ma'noda kelayotganini tushunishimiz (comprehension) zarur. Buning uchun esa albatta ko'proq adabiyotlar, matnlar, maqolalar o'qish kerak. Bu ikki ajralmas usulni rivojlantirish bilan bir qatorda reading jarayonida samarali hisoblangan bir qancha strategiyalarni bilishimiz va ulardan to'g'ri foydalana olishimiz judayam muhim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

O'qish – ingliz tilini o'rganuvchilar orasida tildagi qobiliyatini va imkoniyatini ochib beradigan eng muhim qismi hisoblanadi. Talabalar orasida ingliz tili mashg'ulotlarida o'qish kompetensiyasiga oid mashq deyilganda ko'pchilik talabalar uzun matnlarni o'qish, yangi so'zlarni o'rganish, bir qancha savollarga javob berish deb tushunishlari tabiiy. Lekin o'qishni(reading) mashq qilish bizga ko'plab ko'zdan kechirish(skimming), ma'lumot olish uchun o'qish(scanning), o'qiganidan to'g'ri xulosa qilish(inferring information) va boshqa amaliyotlardan keng foydalanish imkoniyatini

PEDAGOGIKA

beradi.[1](Pearcey, Nancy. "Nancy Pearcey". Archived from the original on October 17, 2013. Retrieved July 19, 2013.)

Tadqiqotimiz davomida an'anaviy mashg'ulot jarayonlarini chetlab o'tgan holda, mashg'ulotlarini bir qancha mashg'ulotlar va amaliyotlar yordamida uni qiziqarli va barchani jalb eta oladigan faoliyat turiga aylantirish usullarini taxlil qilishni foydali deb topdik. Bizni o'rganish faoliyatimiz aqliy qobiliyatimizga bog'liq bo'lgani uchun, qachonki biz yaxshi kayfiyatda bo'lsakgina yaxshiroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz. o'yinlar orqali o'rganish esa talabalarning ongiga ijobiy o'rganish daqiqalarini ochadi va uni "eng zo'r o'rganish vaqtlari" (best learning moments) desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu ijobiy aqliy jarayon esa o'quvchida qiziquvchanlik, o'ziga jalb qilish, xursandchilik kabi emotsiyalarni optimism, ishonch va xotirjamlik bilan bir paytda yuzaga keladi. Mashg'ulotdan zavqlanish hissi esa talabalarga yangi o'rgangan bilimlarini uzoq vaqt eslab qolishga yordam beradi. Talabalarga o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali usullardan biri bu o'yinlar(gamify) orqali (ya'ni ularni ko'proq mashg'ulotlar, jarayonlar yoki topshiriqlar desak maqsadga muvofiq bo'ladi.) rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va samarali usulidir. Odatiy tarqatma materiallar va uzun matnlardan iborat qo'llanmalardan ko'ra, o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda mashg'ulotlarni talabalar orasida do'stona musobaqalar, interfaol usullar va mashg'ulotlar yordamida tashkil etish, ma'lumotlarni esda qolishiga va mashg'ulotlarni unumli bo'lishiga sabab bo'ladi.

- O'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarda imkon boricha ko'proq mavzuga oid rasmlar, diagrammalar, jadvallar va qo'shimcha materiallardan foydalanish nafaqat darslarni rang-barang qiladi, balki uni yaxshiroq tushunishga ko'mak beradi ayniqsa talabalar orasida visual o'rganuvchilar bo'lsa.

Albatta, bunda talabalarning yoshiga, til darajasiga va o'rganish maqsadiga moslab mashg'ulotlar tanlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar mashg'ulotlarda foydalanilayotgan o'qish ko'nikmasini rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishni o'rgangani sari, auditoriyada ular orasida aktiv va ijobiy aloqa shakllanib boradi va bu esa o'z o'rnida o'qituvchiga o'qishni rivojlantiruvchi yangi mashqlar yaratish imkonini beradi.

MUHOKAMA

Ingliz tilida matn o'qishni o'rgatish metodikasi mohiyati va mazmunini tushunish uchun ingliz tilidagi matnlarni an'anaviy usulda o'qitishning bugungi holatini o'rganish muhimdir. Zamonaviy ta'limdagi ijobiy jarayonlarni tanqidiy tushunish va oliy o'quv yurtlarida ta'lim mazmunini rivojlantirish, ingliz tili va madaniyatini o'qitish uslubi va sifatini yanada oshirish, xorijiy til mashg'ulotlarini modernizatsiyalashga ko'maklashadi. So'nggi yillarda chet tillarini o'qitishda ta'limning yordamchi vositalari (video, multimedia, internet va boshqalar)dan foydalanishga qaramay, matn o'qish ilgariidek til o'rganishda alohida o'rin tutadi. Qator mualliflarning fikricha, o'qishni o'rgatish uchun sohaviy matnlardan foydalanish muhim. O'qish vositasida bo'lg'usi kasb egalari o'z sohalariga aloqador bo'lgan ma'lumotlar haqida aniq axborot oladilar. Matn o'qish vaqtida talabalar ijodiy, dinamik jarayonga jalb etiladi. O'z kognitiv rivojlanishida talaba bilimlarni tez to'plash va ularni intellektual qayta ishlash qobiliyatiga erishadi. Ular matnni tushunishga va uning mazmunini o'z intellektual mulkiga aylantirishga, muallifning fikrlari, hislari va irodasini bilishga, o'zi uchun xulosalar chiqarishga va ularga mos ish ko'rishga ko'nikma hosil qiladilar.

Ma'lumki, bugungi kunda nofilologik ta'lim yo'nalishlarda ingliz tilida matn o'qitish jarayoni amaliy jihatdan to'liq yo'lga qo'yilmaganligi, ya'ni akademik soatlarda darslikdagi matnlarga qo'shimcha sifatida tanlangan matnlar sohaviy emasligini nazarda tutib, tadqiqot muammosining tahlili jarayonida quyidagi vazifalar belgilandi:

- sohaviy matnlarni o'qishni o'rgatish mazmunida talabalarning qiziqish darajasini aniqlash;
- ta'lim metodlarining talabalarning kognitiv strategiyalariga muvofiqligini aniqlash;
- talabalarning ingliz tilidagi matnlarni o'qish malakalarini egallash jarayonida o'z shaxsini

shakllantirish darajasini aniqlash. O'qitish amaliyotidan ma'lumki, chet tilni o'qitishda til o'rganish va tilni o'zlashtirish tubdan farqlanadi. Bu borada manbalarda ko'plab fikrlar keltirilgan. Jumladan, chet til o'qitish masalalari bilan chuqur shug'ullangan metodik olim B.Tomlinson tilni o'zlashtirish uchun materiallar tanlash va ularni metodik ishlab chiqishda nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerakligi haqida izlanishlar olib borib, quyidagi asosiy olti tamoyilni belgilaydi :

- 1) talabalarni autentik til bilan tanishtirish;

- 2) ularni autentik tilning xususiyatlariga e'tibor berishga o'rgatish;
- 3) talabalarga o'rganilayotgan tildan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun foydalanish imkoniyatini yaratib berish;
- 4) erishilgan natijalar bo'yicha fikr-mulohaza yuritish imkoniyatini ta'minlash;
- 5) talabalarning qiziqishini uyg'otib, e'tiborini tortadigan, maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydigan shakllardan foydalangan holda ishtiyoqni qo'zg'ay olishga erishish;
- 6) intellektual, estetik hamda hissiy munosabatlarni e'tiborga olish, ularni rag'batlantirib borish.[2](Tomlinson, B. Materials development for language learning and teaching. Language Teaching, 2016 45(2), 143–179.)

NATIJALAR

Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti talabalarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Shuningdek, mazkur bosqichdan talabalarda quyidagi malakalarni rivojlantirish ustida ham ish olib borildi:

1) kommunikativ o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullari; qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "Muhokama" (debate) usuli, "Venn diagrammasi", "Aqliy xujum", "Zinama-zina" usuli.

2) Venn diagrammasi.

3) hikoya turdagi matnda tasvirlashni topish va uning grammatik xususiyatlarini belgilash. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: kichik guruhlariga bo'lib "Savol – javob" usuli, "Muammoni yechish" usuli (Problem solving technology)

Belgilangan maqsadni amalga oshirish hamda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish jarayonida quyidagi metodik usullardan foydalanildi:

1) zarur nazariy ma'lumotlarni taqdim etish; klaster, aqliy hujum, "Bumerang" usuli;

2) namuna uchun tanlangan matnlarni tahlil qilish; "Charxpalak" usuli, "Muloqot" usuli, "Labirint" usuli;

3) topshiriqlar va mashqlarni bajarish. FSMU (F-fikrini bayon qilish; S-fikriga sabab ko'rsatish; M-sababni asoslovchi misol keltirish; U-fikrni umumlashtirish) texnologiyasi.

Ushbu bosqichda taqdim etilgan topshiriq va mashqlarni bajarish uchun quyidagi metodik usullardan foydalanildi:

1) zarur nazariy ma'lumotlarni taqqoslash va muammoli vaziyatda taqdim etish;

2) matnda g'oyaning mavjudligi, uning yoritilganligi darajasi, belgilarni tanlash va asosiy fikrga muvofiq ularning mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish va murakkab sintaktik yaxlitlik nuqtai nazaridan turli xil tasvirlashlarni o'z ichiga olgan matnlarni tahlil qilish;

3) namuna-matnlarning qiyosiy tahlili;

4) turli ijodiy vazifa va mashqlarni bajarish.

Bajariladigan vazifa va mashqlarning turini tanlash va ketma-ketligi rivojlantirayotgan malakalarni tartibi va muhimligi nuqtai nazaridan amalga oshirildi.

Sanab o'tilgan malakalar turli konstruktiv mashqlar bajarish jarayonida takomillashib boradi.

Ushbu bosqichda bajarish uchun belgilangan topshiriqlar va mashqlar yuqorida ko'rsatilgan malakalarga mos ravishda quyidagi tartibda taqdim etildi:

1. O'qish kompetensiyasini rivojlantirish uchun:

a) matnni o'qing va uni qanday nutq turiga xosligini aniqlang;

(read the text and determine what type of speech it is);

b) matnlarni o'qib taqqoslang va ularga qanday bayon qilish usuli xosligini aniqlang;

(read and compare texts and determine how the method of narration is specific to them);

g) matnni ko'chirib oling va tahlil qiling;

(copy the text and analyze it);

d) matndagi fe'llarni yozib oling, ularga savol bering, qaysi zamon shaklida ishlatilganligini aniqlang;

(write down the verbs in the text, ask them questions, determine in which tense form they are used);

PEDAGOGIKA

e) matnlarni o'qing, belgilangan reja bo'yicha tahlil qiling va unda uchragan sohaga oid terminlarni ajratib tahlil qiling. Xulosalarni yozib qo'ying.

(read the texts, analyze according to the established plan, and draw conclusions about what kind of specific terms belongs to. Write down the conclusions.)

2. Obyekti va stilistik mansubligi asosida kommunikativ o'qish turlarini aniqlash:

a) matnlarni o'qing va mazmunini aytib bering. Ularda uchragan sohaga oid terminlarni aniqlang va uning qanday belgilari (doimiy yoki vaqtinchalik) tasvirlanganini ko'rsating;

(read and recite texts. Identify the specific terms in them and indicate what signs are depicted permanently or temporarily);

b) matnlarni o'qing, tahlil qiling va qanday predmetlar, hodisalar haqida xulosa qiling;

(read the texts, analyze according to the established plan and draw conclusions about them);

v) matnlarni ko'chirib oling, ularni tahlil qiling va matnlarni o'qish kompetensiyasini samarali qiladigan texnologiyalar haqida xulosa bering;

(copy texts, analyze them, and conclude about the effective technologies in competence of reading texts);

d) matnni ko'chirib oling, fe'llarni belgilang, ularni qanday shaklda ishlatilganligini aniqlang;

(copy the text, mark the verbs, determine how they are used);

XULOSA

Nofilologik oliy ta'lim muassasalarda oliy ta'limning hozirgi rivojlanish bosqichida chet tilida mutaxassislar tayyorlashga qo'yiladigan talablarning ma'lum tarzda yagonalashtirilishiga ehtiyoj bor. Mavjud o'quv dasturlari va standartlari tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. Oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari ko'pincha taqdim etiladigan tavsiyalarni mustaqil ravishda ishlab chiqadilar. Ular barcha bosqichlarda talabalarga chet tilini o'qitishning eng maqbul, samarali usullarini, ta'lim ehtiyojlarini, ularning bilim sohasining xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqishga majbur bo'lmoqdalar. Ingliz tili nofilologik oliy ta'lim muassasalarda talab yuqori bo'lgan fanlardan biridir. Bir yoki ikkita chet tilini bilish talabaga nafaqat kasbga doir ma'lumotlarni olish, balki tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini o'rganish, o'z dunyoqarashini kengaytirish, ishlab chiqarish sohasi bilan tanishish, yangi, mustaqil, nostandart qarorlar qabul qilish, mazkur mamlakatlarda malakasini oshirish qobiliyatini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Harvey, S& Goudvis, A. (2000). Strategies that work: Teaching comprehension to enhance understanding. York, Maine: Stenhouse. (p.21).
2. Dubuc, R. (1997). Terminology: A Practical Approach. Canada National Library.
3. Budileva, V. S. (2002). Characteristics of Terms as a Basis for Their Classification. M.: Osnova.
3. Pearcey, Nancy. "Nancy Pearcey". Archived from the original on October 17, 2013. Retrieved July 19, 2013.
4. Davlataliyeva Z. The Interaction between Fluency, Vocabulary and Comprehension for improving reading skill. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics Volume: 02 Issue: 04 April-2023 ISSN: 2835-1924 B:87-89
5. Davlataliyeva Z. Pedagogical needs and usefulness of reading fluency for teaching foreign language. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics Volume: 02 Issue: 04 April-2023 ISSN: 2835-1924 B:84-86
6. Davlataliyeva Z. Technical translation as a significant communicational bridge for reading comprehension. In an International Educators Conference, Volume: 02 Issue: 22 April-2024 ISSN: 2835-396x B:109-113
7. Nicole, K. (2010). Integrating Multi-Word Terms in Terminology Management Systems: A Case Study. Wissenschaftlicher Verlag Trier.